

ARABLARNING O'RTA OSIYOGA BOSQINI VA ISLOM DININING YOYILISHI**Abdusalilov Azizjon****Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17972974>****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola islom dinining paydo bo'lishi, Qur'oni Karim orqali shakllanishi va VII–VIII asrlarda Arabiston yarimorolidan O'rta Osiyoga bosqin qilgan arablarning harbiy yurishlari hamda islomni mahalliy aholi orasida yoyilishi jarayonini o'rganadi. Arablarning Movarounnahr va Xurosonni egallashi, Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi yurishlar, viloyatlarni boshqarish tizimi va mahalliy aholiga ta'siri yoritilgan. Shu bilan birga, islom dinining targ'ib qilinishi, masjidlar faoliyati va soliqlar tizimi hududning madaniy va dini rivojlanishiga ta'siri ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Islom dini, Qutayba Ibn Muslim, arabiston

Kirish

Islom - dunyoda tarqalgan jahon dinlaridan biridir. U dunyoda eng katta dinlaridan biri hisoblanadi va 2 milliarga yaqin tarafdorlari bilan 2-o'rinda turadi, 1-o'rinda Xristianlik 2,4 mlrd e'tiqod qiluvchi aholi bilan va 3-o'rinda Buddaviylik 1,15 milliard e'tiqod qiluvchi aholi bilan joy egallagan. Islom dini dastlab VII asrda Arabiston yarimorolida tashkil topdi va bu voqea Arablarning tarqoqligiga barham berib ularni yagona e'tiqod asosida birlashishi uchun sharoit yaratdi. Bu din yakkaxudolikka asoslangan din edi. Ushbu dinning muqaddas kitobi bo'lmish Quroni karim esa islomning asosiy aqidaviy va axloqiy qoidalarini o'zida mujassam etgan holda, musulmon jamiyatining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim manba sifatida shakllandi. Allohning rasuli Makka shahrida milodiy 570-yilda dunyoga kelgan va 632-yilda vafot etgan Muhammad Ibn Abdullohdir. Islomni qabul qilib Rasurullohga ergashganlar esa "muslim" ya'ni musulmonlar deb atalgan.

Islom dining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Allohning kalomi ilk bor 610-yilda payg'ambarga Hiro g'orida Jabroil alayhissalom orqali nozil bo'lgan. Birinchi nozil bo'lgan sura "Iqro" surasidir. Qur'on 112 sura, 6236 oyatdan iborat.

Arablarning o'rta osiyoga bosqini VII - VIII asrlarga to'g'ri keladi.

Arab manbalarida Xuroson va Movarounnahrni arablar istilo qilishi 650-yillarda boshlagan, degan taassurot uyg'otsa-da, aslida dastlabki harbiy harakatlar faqat o'lja olish va o'lpon undirishga qaratilgan edi. Dastlab arablar 651-yilda Marvga yurish qilib u yerni jangsiz egallaydi va Afg'onistonning shimoliy va Eronning shimoli-sharqiy hududlarini istilo qiladilar. Arablar bu yerlarga o'rnashib olgach shimolda joylashgan boy viloyatlarni zabt etishga tayyorgarlik ko'radilar. Bu yerlarni arablar Mavorounnaxr, ya'ni "Daryoning narigi tomoni" deb atadilar, chunki Xuroson bilan Amudaryo va Sirdaryo ajratib turgan.

673-yilning kuzida xalifa Muoviya I (661–680) farmoni bilan Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro hududiga bostirib kiradi. Poykand va Romitonni egallab, Buxoro hukmdori qo'shinlarini yengadi va o'z foydasiga sulh tuzib, bir lak ya'ni yuz ming dirham hajmida tovon undiradi. Tovondan tashqari arablar to'rt ming asir, qurol, kiyim-kechak, oltin va kumush buyumlardan iborat ko'p o'ljalar bilan Marvga qaytadilar. Endilikda Arablar VIII asrning boshlarida mavorounnahrni to'liq bosib olishga kirishadilar. Xurosonga noib qilib tayinlangan Qutayba ibn Muslim arablarning Movarounnahrda harbiy yurishiga boshchilik qiladi. Qutayba buni 705 yilda Balx viloyati atroflarini bosib olishdan boshlaydi. Bundan so'ng

tez orada Chag'oniyon hokimi jangsiz taslim bo'ladi. Qutayba qiyinchilik bilan Poykandni egallab, Buxoro tomonga yo'l oladi va 709-yilda Buxoroni egallaydi. Buxoroliklar har yili xalifalikka boj to'lashga, uylarining yarmini arablarga bo'shatib berishga majbur etiladi. So'ngra Qutayba 709-yilda Narxshab va Keshni bosib olib, Samarqandga yurishga tayyorlanayotgan paytida Xorazmdagi ichki ziddiyatlardan foydalanib Xorazmni zabt etadi. 712-yilda Qutayba qo'shinlari Samarqandga tashlanadi. Bu paytda G'urak Sug'dga podsho qilib ko'tarilgan edi. G'urak arablarga qarshi kurash olib bordi. Kuchlar teng bo'lmaganligi oqibatida Samarqand taslim bo'ladi. G'urak bilan Qutayba o'rtasida sulh tuzilib, Sug'd xalifalikka qaram va boj to'lashi shart qilib qo'yildi. 713-yilda Qutayba qo'shinining bir qismi Choch viloyatiga, o'zi boshliq asosiy kuch esa Farg'ona vodiysi tomon yo'l oladi. Choch vohasi bosib olinib, uning bosh shahri Madinat ash-Shosh va juda ko'p qal'a va qo'rg'onlar hamda qishloqlarga o't qo'yilib vayron etiladi. 715-yilning boshida esa Farg'ona vodiysini uzilkesil egallab, Koshg'argacha kirib boradi. Hamma viloyatlarga arablardan amirlar tayinlanadi. Biroq Qutayba ibn Muslimning faoliyati uzoq davom etmaydi. U Xuroson hududida o'z qo'shinlari tomonidan o'ldiriladi, siyosiy notinchliklar va yangi xalifa Sulaymān ibn Abd al-Malik bilan yuzaga kelgan ziddiyatlar natijasida. Uning o'limi arablarning Movarounnahrda boshqaruviga vaqtincha ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, hududdagi siyosiy va ma'muriy tizim asta-sekin mustahkamlanadi.

Arablarning Movarounnahrda yurishlariga mahalliy aholi va hukmdorlar qarshilik ko'rsatgan. Sug'dda G'urak arablarga qarshi kurashgan, Samarqand oxir-oqibat taslim bo'lgan. Xorazmda Chag'on ukasi Hurzod boshchiligidagi qo'zg'olon yuzaga kelgan, biroq arablarning harbiy kuchi tufayli hududlar oxir-oqibat nazoratga olinadi.

Endilikda arablar bu hududlarda mustahkam o'rnashib olishlari va barqarorlikni taminlash uchun islom dinini mahalliy aholi o'rtasida yoyishga katta ahamiyat berdi. Shu maqsadda Movarounnahrda shu davrgacha mavjud bo'lgan dinlarga qaqarshi qattiq kurash olib bordilar. Boshqa dinlarning muqaddas sanalgan kitoblarni, ilmiy asarlar va qimmatli hujjatlarni gulxanda yoqishdi. Quvadagi budda ibodatxonasi haykallari parchalanib, Afrosiyob saroy devorlariga solinga suratlardagi odam suratlarining ko'zlari o'yilib, bo'yinlariga qilich bilan chizib yuborilganligi buning misolidir. Bundan tashqari, Ibodatxonalar vayron qilinib, ularning o'rniga jome masjidlar bunyod qilindi. Masalan, Qutayba Buxoro shahri markazida joylashgan zardushtiylar ibodatxonasini jome masjidga aylantirdi hamda Mahalliy aholini islom diniga o'tkizish uchun jome masjidiga namoz o'qish uchun kelganlarga 2 dirhamdan pul ham bergan. Bundan tashqari islomni qabul qilib, musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillari xiroj va jizya soliqlaridan ozod etilgan. Xiroj - hosilning 1/3 qismi hajmida olinadigan yer solig'i, jizya bo'lsa islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan jon solig'i hisoblanadi.

Bundan tashqari zakot ham berilardi. Bu mol-mulkning 1/40 hajmi hisobida olinadigan soliq. Soliqlarni o'z vaqtida yo'lamagan kishilarning bo'yinlariga "qarzdor" deb yozilgan taxtacha osib qo'yilardi. Shu tarzda, arablar nafaqat hududda siyosiy va harbiy nazoratni mustahkamlash, balki islom dinini mahalliy aholi orasida keng yoyishga erishdilar. Mahalliy aholining islom dinini qabul qilishi, soliqlar tizimi va masjidlar faoliyati orqali diniy va madaniy ta'sir mustahkamlandi. Bu jarayon Movarounnahr va O'rta Osiyo hududida islom madaniyati va arab ma'muriy tizimini chuqur o'rnatish imkonini yaratdi.

XULOSA; Arablarning O'rta Osiyoga kirib kelishi hududda siyosiy va diniy tizimni mustahkamladi. Islom dini mahalliy aholi orasida keng yoyilib, masjidlar va diniy faoliyat hududning madaniy va ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatdi. Soliqlar tizimi va arab ma'muriyati

hududni tartibga solishda muhim rol o'ynadi. Shu jarayon natijasida mahalliy aholi yangi diniy va madaniy qadriyatlar bilan tanishib, hayot tarzini qayta shakllantira boshladi. Shu tarzda, arablar Movarounnahr va O'rta Osiyoda nafaqat siyosiy, balki madaniy va dini rivojlanishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdilar.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Muhammadjonov Abdulahad Rahimjonovich. O'zbekiston tarixi - Toshkent 2017
2. Islom ma'rifati: asliyat va talqin: o'quv-uslubiy qo'llanma / Mas'ul muharrir Usmonxon Alimov. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa
3. Sayyid Muhammad Xotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. Forschadan N.Komil taij. Toshkent, 2003,
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qur%CA%BCon>
5. <http://www.tiu.uz> – Toshkent Islom universiteti veb-sayti
6. <http://www.ziyonet.uz> – Axborot ta'lim tarmog'i